

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

OKTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

KIMYO FANLARI

Narmanova Feruza, Ibragimov Aziz, Turayev Xayit, Toirova Gulshoda

Zn(II) NING 4-AMINOBENZOY KISLOTASI BILAN $\{[Zn(H_2O)_2(SO_4)_2](C_7H_7NO_2)_2\}_n$

KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI 5-9

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шухназар

РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ
ОТХОДОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕФТЕПРОДУКТОВ 10-16

Mirjalolova Nargiza

MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDA HUYUMLARNI ANIQLASHNING ILG'OR

TEKNOLOGIYALARI 17-23

TARIX FANLARI

Jo'raboyev Ulug'bek

TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI 24-26

IQTISODIYOT FANLARI

Суюнова Саодат

РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА 27-32

Ashurova Sitora

ENHANCING INFLATION FORECASTING THROUGH HYBRID ECONOMETRIC AND MACHINE
LEARNING APPROACHES IN EMERGING MARKETS 33-36

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING

IJTIMOIIY MEKANIZMLARI 37-42

FILOLOGIYA FANLARI

Norbekova Gulrux

INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI 43-46

Abdurahmonova Nilufar

LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI 47-49

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ:
ВЫЗОВЫ ДЛЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА 50-53

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA
REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK
IMKONIYATLARINI ANIQLASH 54-56

Shermatova Saxobaxon

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH
JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYASINI
ASOSLASH 57-59

Baratova Yulduz

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK

ASOSLARI 60-65

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PEDAGOGIK

ASOSLARI 66-70

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Baratova Yulduz Asadullayevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti tyutori

Email: yulduzasadullayevna@gmail.com

Tel: +99897 793 30 10

Jizzax . O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ salohiyatni shakllantirishning metodik asoslarini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kognitiv, interaktiv, yondashuv, empatiya, psixologik muhit, refleksiya, kuzatuv, trening, emotsional barqarorlik, professional rivojlanish.

METHODOLOGICAL BASIS FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF TEACHERS

Baratova Yulduz Asadullayevna

Tutor of Jizzakh state pedagogical university

Annotation This article examines the analysis of the methodological foundations of the formation of the communicative potential of preschool educators and the development of recommendations.

Key words: Competence, cognition, interactivity, approach, empathy, psychological environment, reflection, observation, learning, emotional stability, professional development.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i9/n13>

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida ularning kommunikativ salohiyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kommunikativ salohiyat - bu tarbiyachining bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish, o'z fikrini aniq, ravon va madaniyatli tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Ushbu maqolaning maqsadi - maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ salohiyatni shakllantirishning metodik asoslarini tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kommunikativ salohiyat - bu shaxsning muloqot jarayonida o'z fikrini aniq, to'g'ri va madaniyatli tarzda ifoda etish, suhbatdoshni tinglash, tushunish hamda o'zaro munosabatni samarali yo'lga qo'yish qobiliyatidir. Pedagogik jarayonda kommunikativ salohiyat, avvalo, tarbiyachining bolalar, ota-onalar, hamkasblar va rahbarlar bilan to'g'ri muloqot qila olishida namoyon bo'ladi. Bunday salohiyatga ega pedagog o'z nutqini to'g'ri rejalashtiradi, intonatsiyani tanlaydi, hissiy muvozanatni saqlaydi, turli holatlarda diplomatik tarzda fikr bildiradi. Shu bois kommunikativ salohiyatni pedagogning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin. [6.,B.116-119]

Ko'plab tadqiqotchilar (N.M. Mahmudova, G. Yusupova, Z. Karimova va boshqalar) kommunikativ salohiyatni ko'p komponentli tizim sifatida talqin etadilar.[8.,B.60-67] U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Til va nutq kompetensiyasi – so'z boyligi, grammatik to'g'rilik, ifoda uslubi va muloqot madaniyati.
2. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya – suhbatdoshni his qilish, empatiya, tinglash madaniyati.
3. Strategik kompetensiya – turli muloqot vaziyatlarida mos strategiya va taktika tanlay bilish.
4. Kognitiv (bilim) komponent – muloqot jarayonining nazariy asoslarini bilish va amaliyotda qo'llay olish.

Kommunikativ salohiyatning mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosi va tashqi muhit o'rtasidagi bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. U shaxsning faolligini, o'z fikrini himoya qila olishini, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tizimi misolida olganda, kommunikativ salohiyat tarbiyachining bolalarga nutqiy namunalar, muloqot uslublari va hissiy muhit orqali ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi.

Bugungi kunda kommunikativ salohiyatni rivojlantirish uchun interfaol metodlar, muammoli vaziyat tahlili, rolli o'yinlar, debatlar, treninglar va refleksiya mashg'ulotlari keng qo'llanmoqda. Bunday metodlar nafaqat nutqiy, balki hissiy-intellektual salohiyatni ham oshiradi. Natijada tarbiyachi o'z faoliyatida bolalar bilan iliq, o'zaro hurmatga asoslangan muloqot o'rnatadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi. Tarbiyachining bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish, fikrini aniq va madaniyatli ifoda etish, tinglash madaniyatiga ega bo'lishi uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardandir. Kommunikativ madaniyat – bu nafaqat nutqiy savodxonlik, balki shaxsiy fazilat, empatiya, hurmat, sabr-toqat va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Tarbiyachining kommunikativ madaniyati pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi. Chunki u bolalar bilan har kuni o'zaro muloqotda bo'ladi, ularning hissiy holatini kuzatadi, tushunadi va javob beradi. Shu jarayonda tarbiyachi o'z nutq madaniyatini, tinglash ko'nikmalarini, emotsional barqarorlikni rivojlantiradi. Har bir bola bilan individual yondashuvda muloqotning samarali usullarini qo'llay bilish - bu tarbiyachining yuksak kommunikativ madaniyatidan dalolat beradi. [4., B.9-12]

Shuningdek, kommunikativ madaniyatni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Masalan, onlayn muloqot, ota-onalar bilan elektron aloqa vositalari orqali samarali munosabat o'rnatish tarbiyachining zamonaviy kommunikativ kompetensiyasini oshiradi. Bu nafaqat muloqotni osonlashtiradi, balki ishonchli, shaffof va samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Faoliyat davomida tarbiyachining kommunikativ madaniyati uning kasbiy tajribasi ortishi bilan yanada takomillashadi. Dastlabki bosqichlarda u nazariy bilimlarga tayansa, amaliy tajriba orttirgan sayin real vaziyatlarda to'g'ri muloqot strategiyalarini tanlashni o'rganadi. Shu tariqa, tarbiyachining kasbiy yetukligi kommunikativ madaniyatining yuksak darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Kommunikativ salohiyatni rivojlantirish – bu shaxsning muloqot jarayonida o'z fikrini to'g'ri ifoda etish, suhbatdoshni tushunish, ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda muloqot olib

borish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Ushbu salohiyatni samarali rivojlantirishda psixologik, pedagogik va interaktiv yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yondashuv kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga turli tomondan ta'sir etadi va tarbiyachining kasbiy kompetentligini boyitadi.

Psixologik yondashuv kommunikativ salohiyatning ichki omillariga e'tibor qaratadi. Bu yondashuvga ko'ra, inson muloqot jarayonida o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Psixologik metodlar orasida empatiya mashqlari, o'zini anglash va o'zini boshqarish treninglari, refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi. Masalan, tarbiyachilar uchun o'tkaziladigan "Muloqotda his-tuyg'ularni boshqarish" yoki "O'z fikrini ishonchli ifoda etish" kabi treninglar ularning kommunikativ barqarorligini oshiradi. Shuningdek, bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish ularning ishonchini qozonish va ijobiy munosabat o'rnatishga yordam beradi. [11.,B.69-74]

Pedagogik yondashuv esa kommunikativ salohiyatni tarbiyaviy va o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'radi. Pedagogik metodlar tarbiyachining kasbiy faoliyati orqali shakllanadi va tizimli tarzda rivojlantiriladi. Bu yondashuvda suhbat, bahs-munozara, muammoli vaziyatni tahlil qilish, rolli o'yinlar kabi metodlar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali tarbiyachi o'z muloqot uslublarni sinovdan o'tkazadi, turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutish madaniyatini o'rganadi. Pedagogik jarayonda muloqotning didaktik, tarbiyaviy va shaxsiy rivojlantiruvchi funktsiyalarini uyg'unlashtirish zarur.

Interaktiv yondashuv esa zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslanib, muloqotni faol ishtirok, hamkorlik va o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Venn diagrammasi", "Blits so'rov" kabi interfaol metodlar orqali tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o'zaro faol muloqotga kirishadilar. Masalan, "Aqliy hujum" usuli yangi g'oyalar yaratish va ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlash, "Rolli o'yin" usuli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri kommunikativ strategiyani tanlashni o'rgatadi. Interaktiv metodlar orqali pedagoglar o'zaro fikr almashadi, o'z nuqtai nazarini asoslaydi va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rganadi.[9.,B.21-24] Shunday qilib, kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda psixologik, pedagogik va interaktiv yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Psixologik yondashuv shaxsning ichki hissiy holatini boshqarishga, pedagogik yondashuv muloqotni mazmunan to'g'ri tashkil etishga, interaktiv yondashuv esa muloqotni faol, ijodiy va samarali jarayonga aylantirishga xizmat qiladi. Natijada tarbiyachining muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanligi va kasbiy salohiyati yanada yuksaladi.

Maqolalar va metodik qo'llanmalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida kommunikativ salohiyat - pedagogning kasbiy kompetensiyasining muhim qismi sifatida qaraladi. Milliy metodik qo'llanmalar va davlat dasturlari pedagoglarning nutq madaniyati, muloqot uslublari hamda ota-ona-pedagog muloqotiga alohida e'tibor qaratishni tavsiya qiladi; bu hujjatlar amaliyotda treninglar, seminarlar va metodik birlashmalar orqali amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'zbek maktabgacha ta'limining sifatini oshirish strategiyasida bayon etilgan. O'zbek olimlari ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni pedagogik va didaktik vositalar orqali tizimli ravishda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Milliy tadqiqotlar (o'quv qo'llanmalar, lokal ilmiy maqolalar) tarbiyachilarni nutqiy tayyorlash, emotsional intellektni rivojlantirish va muloqot madaniyatini amaliy mashg'ulotlar orqali

oshirish usullarini taklif etadi. Ushbu manbalarda, shuningdek, tarbiyachilarning muntazam o'z-o'zini tahlil qilish (refleksiya), ota-onalar bilan konstruktiv muloqot texnologiyalari va metodik ishlar tizimi (metodika ishlarida kommunikativ mavzular) muhim ekani qayd etilgan. [9, B.47-48] Xorijiy adabiyotlar esa ushbu muammoni nazariy va empirik jihatdan kengroq yoritadi. Masalan, xalqaro tadqiqotlar preschool pedagoglarning bolalar bilan "sistematik suhbat" o'tkazish qobiliyati (systematic child talks) bolalarning til va tafakkur rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi; bu tadqiqotlar tarbiyachilar nutqining mazmuni, savollar tuzilishi va muloqot strategiyalarini amaliy mashg'ulotlarda o'rgatish zaruratini bildirishadi. Shuningdek, dialogik dars suhbatlari va interaktiv yondashuvlar bo'yicha xorijiy tadqiqotlar pedagogik muloqot sifatini oshirishda samaradorligini isbotlagan. Dialogik yondashuv pedagogga bolalar bilan ochiq savollar, fikr almashish va ma'noni birgalikda qurish orqali muloqotni boyitish imkonini beradi; bunday texnikalar tarbiyachilarni "muloqot moderatoriga" aylantiradi va bolaning yoshiga mos tarjimalar orqali fikrni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maktabgacha muassasalarda kommunikatsiya naqshlari va pedagog-ota-ona muloqotini o'rganuvchi ilmiy maqolalar muloqotning verbal va noverbal jihatlarini, madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Xorijiy tajribalar (masalan, Yevropa va Skandinaviya tadqiqotlari) tarbiyachilarni muntazam professional rivojlantirish, kuzatuvga asoslangan refleksiya va amaliy pedagogik yondashuvlarni (lesson study, video-refleksiya, hamkasblar bilan mentoring) joriy etishni tavsiya qiladi.

Hozirgi global ta'lim tizimida kommunikativ salohiyat tarbiyachining kasbiy muvaffaqiyati uchun asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaraladi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning muloqot madaniyatini rivojlantirish uzluksiz kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Finlyandiya maktabgacha ta'lim modelida tarbiyachilarning kommunikativ salohiyatini shakllantirish, asosan, dialogik ta'lim konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, pedagog bolaning fikrini tinglash, savollar berish va muloqotni hamkorlikda qurish orqali uning tafakkurini rivojlantiradi. Tarbiyachilar uchun maxsus treninglarda "interaktiv suhbat", "tinglash madaniyati" va "fikr almashish" metodlari o'rgatiladi. Fin ta'lim tizimi pedagoglarni har bir bola bilan shaxsiy muloqot o'rnatishga undaydi, bu esa bolaning o'z fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. [5., B.16-17]

Buyuk Britaniya tajribasida kommunikativ kompetensiya "professional standards for early years practitioners" doirasida aniqlanadi. Tarbiyachilar har yili nutq madaniyati, muloqot etikasi va ota-onalar bilan hamkorlik bo'yicha malaka oshirish kurslaridan o'tadilar. Amaliy mashg'ulotlarda "role play", "storytelling" va "reflective dialogue" texnikalari orqali bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish o'rgatiladi. [5., B.19-21] Shu bilan birga, tarbiyachilarning kommunikativ faoliyatini baholash uchun monitoring tizimi joriy etilgan bo'lib, unda o'qituvchining bolalar va ota-onalar bilan aloqasi, emotsional reaksiyasi va muloqotdagi moslashuvchanligi mezon sifatida olinadi.

AQShda maktabgacha ta'lim tizimi "social-emotional learning" (SEL) dasturlari bilan uzviy bog'langan. Bu dasturlar tarbiyachilarning empatiya, faol tinglash, ijobiy fikrlash va konfliksiz muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Pedagoglar uchun "Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL)" markazi tomonidan

ishlab chiqilgan trening modullari orqali kommunikativ salohiyat amaliy mashg'ulotlar, videokuzatuvlar va refleksiya asosida shakllantiriladi. [10,B.595-609]

Yaponiya tajribasida esa muloqot madaniyati milliy qadriyatlar – hurmat, xushmuomalalik va jamoaviylik ruhida tarbiyalanadi. Tarbiyachilar bolalar bilan muloqotda “kodomo no koe” (“bolaning ovozi”) tamoyiliga amal qiladi. Bu yondashuv bolaning his-tuyg'ularini anglash, muloqotda yumshoqlik va sabr bilan yondashish orqali pedagogning kommunikativ madaniyatini mustahkamlaydi. Tarbiyachilar uchun muntazam ravishda psixologik treninglar va kuzatuv (lesson study) tizimi orqali o'zaro tajriba almashish yo'lga qo'yilgan.

Skandinaviya mamlakatlarida (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda “refleksiv pedagogika” konsepsiyasi keng qo'llaniladi. Tarbiyachilar o'z darslarini videoga olib, hamkasblar bilan tahlil qiladi, bu esa o'z muloqot uslubini takomillashtirishga yordam beradi. Muloqot jarayonida verbal va noverbal ifoda, bolaning ijtimoiy-emotsional holatini his etish, dialogni muvozanatli olib borish asosiy e'tiborda bo'ladi. [10,B.609-612]

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning kommunikativ salohiyatini shakllantirishda dialogik ta'lim, reflektiv kuzatuv, trening va interaktiv mashg'ulotlar eng samarali metodlar hisoblanadi. Ularni O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish pedagoglarning muloqot madaniyatini oshirish, bolalarning psixologik qulayligini ta'minlash va ta'lim samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kommunikativ salohiyatni shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlik masalasi ham muhimdir. Ota-onalar bilan o'zaro ishonchli, ochiq muloqot o'rnatish, ularning farzand tarbiyasidagi ishtirokini rag'batlantirish tarbiyachining kommunikativ madaniyatini yanada mustahkamlaydi. Bu maqsadda “ota-onalar klubi”, “ochiq eshiklar kuni”, “oilaviy suhbatlar” kabi tadbirlarni metodik tarzda yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Tavsiyalar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ salohiyatni rivojlantirish uchun maxsus o'quv-trening dasturlari ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.
2. Tarbiyachilar malakasini oshirish kurslarida kommunikativ kompetensiyaga doir modullarni majburiy komponent sifatida kiritish.
3. Har bir maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachilarning muloqot madaniyati darajasini baholash va monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish.
4. Xorijiy ilg'or tajribalarni (Finlyandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi) o'zbek sharoitiga moslashtirgan holda trening va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.
5. Pedagoglarning o'zaro tajriba almashuvini yo'lga qo'yish — “mentorlik”, “ustoz-shogird”, “metodik klub” shaklidagi faoliyatlarni kengaytirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tarbiyachilarda kommunikativ salohiyatni shakllantirish ko'p bosqichli, tizimli va interaktiv jarayondir. U faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy mashg'ulotlar, refleksiya, o'zaro kuzatuv va doimiy o'zini takomillashtirish orqali rivojlanadi. Shu metodik yo'nalishlar asosida olib borilgan ishlar pedagogik muloqot madaniyatini yuksaltiradi, maktabgacha ta'lim jarayonining insonparvarlik, samimiylik va samaradorlik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun 16.12.2019 yildagi **O'RQ-595**-son
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son
3. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.07.2025 yil VMQ-423-son
4. Ahmedova, N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishda tarbiyachining o'rni. "Ta'lim taraqqiyoti" ilmiy jurnali. – 2022. – №3.
5. Dodd, A. Developing Communication Skills in Early Years Practitioners. – London: Bloomsbury Education, 2019.
6. Hargie, O. Skilled Interpersonal Communication: Research, Theory and Practice. – London: Routledge, 2011.
7. G'ulomova, Z. Pedagogik muloqot va uning rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
8. Jalolova, N. M. Tarbiyachilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik yo'nalishlari. "Pedagogik innovatsiyalar" ilmiy jurnali. – 2023. – №2.
9. To'xtayeva, D. R. Bolalar bilan kommunikativ faoliyatni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020.
10. Puroila, A. M., & Estola, E. Dialogic approaches in early childhood education: Teachers' professional communication. European Early Childhood Education Research Journal. – 2014. – Vol. 22(5). – P. 595–609.
11. Rahimova, M. A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasida muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.